



SHEVALARNING KELIB CHIQISH TARIXI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-
bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10789531>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 04-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 06-mart 2024 yil

KEY WORDS

*sheva, lahja, dialekt, grammatika,
leksika, mahalliy dialekt, ijtimoiy
dialekt;*

ABSTRACT

Ushbu maqolada dialektologiya fanining kelib chiqishi, lahjalarning bir-biri bilan o'xshash va farqli jihatlarini va dialektologiyaning bizga qanchalik muhim ekanligini to'g'risida atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Dialektologiya fani shevalarni o'rganadigan fan. Dialektologiya so'zi grekchadan olingan bo'lib, sheva, lahja, dialektlar haqidagi bilim degan ma'noni anglatadi. So'zlarning leksik, morfologik va grammatik shaklanish chegaralarini O'zbek dialektologiyasida o'rganamiz. Har bir milliy tilning asosini shevalar tashkil qiladi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. ¹Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur Bu haqida birinchi prezidentimiz **I.A. Karimovning**: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir" ² – degan so'zlarni eslash o'rinlidir.

Turkiy tillardan o'zbek tilining farqi ko'p shevaliligi bilan ajralib turadi. O'zbek tilining taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini izohlashda sheva, lahja, dialekt kabi atamalar qo'llaniladi. *Sheva* forschadan olingan bo'lib ravish, tarz degan ma'nolarni anglatadi. *Dialekt* so'zi grekcha sheva degan ma'noni anglatadi. *Lahja* arabcha ravish, tarz, yo'sin, sheva degan ma'nolarni anglatadi. Dialektlarning eng yirik to'dasi bu *lahjadir*

O'zbek tili uchta lahja birligidan tashkil topgan: Qarluq, qipchoq, o'g'uz

Ikki xil dialekt mavjud *mahalliy dialekt* va *ijtimoiy dialekt*. Umumxalq tilining ma'lum territoriyaga oid holatiga mahalliy dialekt deyiladi. Mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o'zbek dialektologiyasida o'rganiladi. Ijtimoiy dialekt mahalliy shevadan farq qiladi. Ijtimoiy dialektni ma'lum bir soha yoki kasb hunar leksikasida foydalanilgan so'zlardan kelib chiqqan. Ijtimoiy dialektni o'zbek dialektologiyasida o'rganilmaydi. Ko'pchilik olimlar o'tgan asrning birinchi yarmidayoq o'zbek tili turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan ajralib turgan. Dialektlarning ko'pligiga sabab aholi yashash manzillari bir-biridan uzoqroqda joylashganligidir.

¹ Ashirboyev Samirxon O'zbek dialektologiyasi" TOSHKENT 2013

² Karimov I.A "Yuksak Ma'naviyat yengilmas kuch" TOSHKENT 2009

O'zbek tili katta uch lahjani o'z ichiga oladi. Bu lahjalarning har biirga qattiy qonun qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu uchta lahjada ham o'xshashliklar kuzatiladi. Masalan unlilarni cho'ziq talaffuz qilish hodisasi o'g'uz va qarluq lahjasida ham kuzatilishi mumkin: Uzoooooqqa borib tog'larni tomosha qildim. Ooooooppoqina xo'shray paltun sotib oldim.

Shevashunos bilimdonlardan biri professor E. D. Polivanov: ".....turkiy tillarning birortasi ham shevalararo o'zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi, demak, birorta turkiy til ham shu qadar spetsifiq, dialektal xilma-xillik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa, tabiiy, adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og'irlashtiradi" degan edi.³

Sheva adabiy til bilan tez birlashib ketayotganiga qaramay hali bu xususiyatlar butkul o'z aksini topgani yo'q qishloqlar tugul hali shaharlarda ham bu sheva xususiyatlari ma'lum darajada saqlanib turibdi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida qilinadigan xatolar ham shevalar ta'sirida bo'lyapti. Shunday holatlarni yo'q qilishimiz uchun o'qituvchilar dars jarayonida hozirgi o'zbek adabiy tilida dars o'tishlari kerak bo'ladi. Shu sababli hozirgi o'zbek adabiy tilini miukammal o'rganib boshqalarga o'rgatishimiz kerak.

Shevalar bizga juda kerak. Biz shevalarni o'rganish orqali yozma yodgorliklarni ham o'rganishimiz mumkin chunki oldingi yozma yodgorliklarning hammasi shevada yozilgan hozirgi adabiy til bilan solishtirib bo'lmaydi. Yozma yodgorliklar arab tilida yozilgan ularni hozirgi adabiy til bilan izoxlaganda fonetik jihatdan bir-biriga to'g'ri kelmaydi shunday vaziyatlarda biz shevalardan foydalanamiz.

Sheva materiallari faqat o'zbek tili uchun emas balki tarixchilar uchun ham juda zarur. Shevalar orqali shu millatning ma'naviy madaniyati va yodgorliklarida qayd etilmagan ma'lumotlarni ham topishimiz mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishiga e'tibor bersak, bu til genetik jihatdan bir biriga o'xshamas uchta lahjadan tashkil topadi. Shevalarni tasniflashda albatta shu narsani unutmasligimiz kerak.

O'zbek tilida gaplashuvchi xalqlar qadim o'tmishda turkiy qabilalar bilan bir qatorda boshqa turkiy bo'lmagan boshqa qabilalar bilan ham yaqin munosabatda bo'lishgan. O'zbek shevalari boshqa turkiy tillardan, turkiy bo'lmagan bir necha belgilar yuzaga kelganligi bilan farqlanadi. Lekin qipchoq va o'g'uz shevalari turkiylik jihatlarini yo'qotib qo'ymagan. O'zbek tilining shakllanib, taraqqiy etishida qardosh tillarning ham foydalari ko'p. Bunga misol tariqasida O'zbek tilining tarixiga e'tibor qaratsak, o'zbeklarning bir qismi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoqlar va o'zbeklar bilan turkmanlar orasida genetik jihatdan yaqinlik bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek dialektologiyasi" S. Ashirboyev TOSHKENT 2013
2. "O'zbek dialektologiyasi" B. To'yichiboyev, B. Xasanov TOSHKENT 2004
3. "O'zbek dialektologiyasi" V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov TOSHKENT 1978
4. "O'zbek dialektologiyasi" N. Murodova TOSHKENT 2019

³ "O'zbek dialektologiyasi" B. To'yichiboyev, B. Xasanov TOSHKENT 2004